

## JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH

**Kenjayeva Sevinch Shamsiddin qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti  
Milliy g'oya, manaviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi qoshidagi Yosh Siyosatchilar Ligasi azosi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada respublikamizda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va ularning aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini o'stirishdagi roli hamda bu borada erishilayotgan natijalar xususida so'z boradi.

**Kalit So'zlar:** huquqiy ong, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so'ng aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga alohida etibor berib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustda Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi qabul qilingan edi. Dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad aholining barcha qatlamlari huquqiy savadxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir. Ushbu dastur doirasida jamiyatda aholining huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari xodimlarining bilimdonligiga ko'p jihatdan bog'liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish va boshqa masalalar o'z aksini topgan. Fuqarolik jamiyatining huquqiy madaniyat darajasi jamoat birlashmalari, jamg'armalar, uyushmalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining keng tarmog'i mavjudligi hamda bu demokratik tuzilmalarning muayyan shaxs va jamiyatning huquqlarini taminlashdagi ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi

- Inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi
- Konstitutsiya va qonunning ustunligi
- Demokratiyaga asoslanganlik
- Ijtimoiy adolat
- Ilmiylik, uzluksizlik
- Huquqiy tarbiyadagi vorislik hamda umumiylik
- Huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi
- Huquqiy tarbiya va huquqiy maorifning birligi hamda ularga tabaqalashtirilgan yondashuv.

Bugungi kunga kelib zamon o'zgarishi va insonlarning fikr yuritish darajasi o'zgarganligi sababli ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qo'yilmoqda.

Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy ong – bu ijtimoiy ong shakli bo'lib, u insonning o'z marifat va manaviyat darajasiga tayangan holda jamiyatda amal qilayotgan huquqiy talab va normalarining mazmunini tushunish va mohiyatini anglash jarayonidir. Huquqiy madaniyat – bu fuqarolarning o'z haq-huquqlarini huquqiy ongiga tayangan holda o'zgaralar manfaatiga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirishi tushuniladi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalariga Sharq va G'arb olimlari ham o'zlarining fikr va mulohazalarini bildiradilar. Jumladan, professor Islomov huquqiy ongga shunday tarif beradi. Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilgan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar tizimi sifatida qarash mumkin. Huquqiy madaniyatga berilgan tariflarga to'xtaladigan bo'lsak, A.Saidov hamda U.Tajixanovlar o'zlarining Huquqiy madaniyat nazariyasi nomli kitobida huquqiy madaniyatga shunday tarif berishadi. Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz.

So'ngi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik bilimga ega kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savadxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Belgilab qo'yilishicha, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish shaxs – jamiyat – oila prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvarda Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi PF-5618-sonli farmoni elon qilindi. Farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini taminlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi deya takidlanadi. Ushbu farmon doirasida talim muassasalarida huquqiy savadxonlikni oshirish borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi avlod huquqiy darsliklari va o'quv qo'llanmalari tizimini yaratish. Bunda umumtalim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun huquqiy bilimlarni sodda va ko'rgazmali o'rgatishga qaratilgan o'quv qo'llanmalarini, shuningdek, talim muassasalarida uchun huquq fanlari bo'yicha o'quv darsliklari va qo'llanmalarini tayyorlash choralari ko'rilmoqda. Aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida davlat organlari huzuridagi axborot-tahlil multimedia markazlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyatini kuchaytirish. Bunda dolzarb va aholini qiziqtiradigan huquqiy masalalarni aniqlashtirish hamda tahlillar asosida va qonunchilikdagi sohaga oid

yangiliklar bo'yicha zarur axborot-tahliliy va ko'rgazmali media materiallarni tayyorlash va efirga uzatish yuzasidan ham chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Farmonda yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o'ta salbiy illat ekanligini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish ham ko'rsatib o'tilgan.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksak darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashning zaruriy shartidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi maruzasida ham aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati masalasiga alohida to'talib o'tadilar Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo'lmasa kutilgan natijalarga erishish mushkul bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma-bosqich takomillashib boradigan jarayon hisoblanadi. Insonlarning huquqiy ongi va madaniyat darajasining yuksalishi qonunlarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantiradi. Bugungi kunda ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda, shu maqsadda fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, talim-tarbiyasini yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 29.08.1997-yil 466-I son qarori bilan tasdiqlangan.Nrm.uz
2. Islomov.Z.M. Davlat va huquq nazariyasi.-T Adolat, 2007. 537-b
3. U.Tajixanov, A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom.-Toshkent. 1998,11-b
4. 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillshtirish to'g'risida gi Prezident farmoni, Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi maruzasi. www.Zarnews.uz.